

Sayxunobod tumani

Date : 23 Iyun, 2015

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani hokimi



Turdiboyev Abduvohid To`xtaboyevich

Sayxunobod tumani hokimi

Telefon: 0 (367) 333-2961, Faks: 0 (367) 333-2503

E-mail: a.turdibojev@umail.uz

Biografiyasi: [Biografiya](#)

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani haqida ma`lumot

Sayxunobod tumani 1970 yil 7 dekabrda tashkil topgan bo`lib, umumiy maydoni 445.2 kv.km.

Tumanda jami 65.0 ming kishi istiqomat qiladi.

Sayxunobod tumani Guliston va Sirdaryo tumanlari hamda Toshkent viloyati bilan chegaradosh.

Sayxunobod tumanida 7 ta qishloq fuqaro yig`inlari, 39 ta mahalla mavjud bo`lib, 2010 yil 1 yanvar holatiga band aholi soni 26.2 mingtani tashkil etib shundan 21.6 ming kishi moddiy ishlab chiqarishda va 4.6 ming kishi nomoddiy ishlab chiqarishda band.

2010 yilning 1 yanvar holatiga tuman bo`yicha jami 1667 ta xo`jalik yurituvchi sub`ektlar ro`yxatga olingan bo`lib shundan 1171 ta fermer xo`jaliklari, 1594 ta kichik korxonalar va mikrofirmalardir.

2009 yilda tumandagi sanoat korxonalari tomonidan jami 41.8 mlrd. so`mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib o`tgan yilga nisbatan o`sish sur`ati 101.6% ni tashkil etdi. Shuningdek 14.6 mlrd. so`m (105.3 %) xalq istiqomati mollari ishlab chiqarildi. 19.2 mlrd. so`mlik kapital qo`yilmalar o`zlashtirildi (156.0 %), 4.4 mlrd. so`mlik (100.3 %) qurilish ishlari amalga oshirildi. Yalpi qishloq xo`jaligi mahsuloti 60.3 mlrd. so`m (106.1 %), chakana savdo aylanmasi 9.5 mlrd. so`m (111.9 %), aholiga pulli xizmat ko`rsatish 2.7 mlrd. so`m (100.8 %), eksport xajmi 10.2 mln. AQSH dollari (72.2%) va

import 22.5 ming AQSH dollar (0.8 %)ni tashkil etdi.

Kichik bizn?ni rivojlantirish uchun 2009 yil mobaynida jami 8110.4 mln. so'm, shu jumladan, 1354.9 mln. so'm qisqa muddatli va 6755.5 mln. so'm uzoq muddatli kr?ditlar ajratildi.

2009 yilda o'rtacha oylik ish haqi 450.9 ming so'mni tashkil etdi. 2010 yil 1 yanvar holatiga tuman aholisi 79.2 % tabiiy gaz va 73.1 % ichimlik suvi bilan ta'minlangan. SHuningd?k, 2010 yil 1 yanvar holatiga jami 5.1 km ichimlik suvi va 4.2 km gaz quvurlari tortilib foydalanishga topshirildi.

Tumanda 41 ta umumta'lim maktablari bo'lib, ularning 6 tasi moslashtirilgan binolarda joylashgan. Tumanda yangi ish o'rinlari yaratish Dasturining bajarilishi 2004 yilda 105.5 %ni, 2005 yilda 102.4 %ni, 2006 yilda 100.8 %,2007 yilda 102.7 %ni, 2008 yilda 100.1 %, 2009 yilda 100.0 %ni tashkil etdi. Turar-joy binolari bilan ta'minlanishi 2004 yilda 30.0 ming kv.m, 2007 yilda 27.9 ming kv.m, 2008 yilda 29.6 ming kv m, 2009 yilda 32.8 ming kv.mni tashkil etdi. Tuman bo'yicha tashilgan yuk miqdori 2004 yilda 626.8 ming tonna, 2005 yilda 669.5 ming tonna, 2006 yilda 266.4 ming tonna, 2007 yilda bu ko'rsatkich 568.6 ming tonna, 2008 yilda 747.4 ming tonna, 2009 yilda 832.3 ming tonnani tashkil etdi. Huddi shunday 2004 yilda 5676.0 ming yo'lovchi, 2007 yilda 4620.3 ming kishi, 2008 yilda 4192.9 ming kishi, 2009 yilda 4613.9 ming kishini tashkil etdi.

[Sayxunobod tumanidagi mahallalar](#)